

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС  
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО  
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



**2021 йил махсус сон**



**Бош муҳаррир:** Наманган давлат университети ректори С.Т.Тургунов

**Масъул муҳаррир:** Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор М.Р.Қодирхонов

**Масъул муҳаррир ўринбосари:** Илмий тадқиқот ва илмий педагогик кадрлар тайёрлаш бўлими бошлиги Р.Жалалов

### ТАҲРИРҲАЙЪАТИ

**Физика-математика фанлари:** акад. С.Зайнобиддинов, акад. А.Аъзамов, ф-м.ф.д., доц. М.Тўхтасинов, ф-м.ф.д., проф. Б.Саматов, ф-м.ф.д., доц. Р.Хакимов, ф-м.ф.д. М.Рахматуллаев.

**Кимё фанлари:** акад.С.Рашидова, акад. А.Тўраев, акад. С.Нигматов, к.ф.д., проф.Ш.Абдуллаев, к.ф.д., проф. Т.Азизов.

**Биология фанлари:** акад. К.Тожибаев, акад. Р.Собиров, б.ф.д. доц.А.Баташов, б.ф.д. Н.Абдурахмонов.

**Техника фанлари:** - т.ф.д., проф. А.Умаров, т.ф.д., проф. С.Юнусов.

**Қишлоқ хўжалиги фанлари:** – г.ф.д., доц. Б.Камалов, қ-х.ф.н., доц. А.Қазақов.

**Тарих фанлари:** – акад. А.Асқаров, с.ф.д., проф. Т.Файзуллаев, тар.ф.д, проф. А.Расулов, тар.ф.д., проф. У.Абдуллаев.

**Иқтисодиёт фанлари:** – и.ф.д., проф.Н.Махмудов, и.ф.д., проф.О.Одилов.

**Фалсафа фанлари:** –ф.ф.д., проф. М.Исмоилов, ф.ф.н., О.Маматов, PhD Р.Замилова.

**Филология фанлари:** – акад. Н.Каримов, фил.ф.д., проф.С.Аширбоев, фил.ф.д., проф. Н.Улуқов, фил.ф.д., проф. Ҳ.Усманова. фил.ф.д.,проф. Б.Тухлиев, фил.ф.н, доц.М. Сулаймонов.

**География фанлари:** - г.ф.д., доц. Б.Камалов, г.ф.д доц К.Боймирзаев

**Педагогика фанлари:** - п.ф.д., проф. У.Иноятгов, п.ф.д., проф. Б.Ходжаев, п.ф.д., п.ф.д., проф. Н.Эркабоева, п.ф.д., проф.Ш.Хонкелдиев, п.ф.д., проф Ў.Асқарова, п.ф.н., доц. М.Нишонов, PhD П.Лутфуллаев.

**Тиббиёт фанлари:** – б.ф.д. Ғ.Абдуллаев, тиб.ф.н., доц. С.Болтабоев.

**Психология фанлари** – п.ф.д.,проф З.Нишанова, п.ф.н., доц. М.Махсудова

**Техник муҳаррир:** [Н.Юсупов](#)

**Таҳририят манзили:** Наманган шаҳри, Уйчи кўчаси, 316-уй.

**Тел:** (0369)227-01-44, 227-06-12 **Факс:** (0369)227-07-61 **e-mail:** [ilmiy@inbox.uz](mailto:ilmiy@inbox.uz)

Ушбу журнал 2019 йилдан бошлаб Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси Раёсати қарори билан физика-математика, кимё, биология, фалсафа, филология ва педагогика фанлари бўйича Олий аттестация комиссиясининг диссертациялар асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатида киритилган.

“НамДУ илмий ахборотномаси–Научный вестник НамГУ” журнали Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигининг 17.05.2016 йилдаги 08-0075 рақамли гувоҳномаси ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги (АОКА) томонидан 2020 йил 29 август куни 1106-сонли гувоҳнома га биноан чоп этилади. “НамДУ Илмий Ахборотномаси” электрон нашр сифатида ҳалқаро стандарт туркум рақами (ISSN-2181-1458)га эга НамДУ Илмий-техникавий Кенгашининг 27.10.2021 йилдаги кенгайтирилган йиғилишида муҳокама қилиниб, илмий тўплам сифатида чоп этишга рухсат этилган (**Баённома № 13**). Мақолаларнинг илмий савияси ва келтирилган маълумотлар учун муаллифлар жавобгар ҳисобланади.



ўқитувчининг инсонпарварлиги ўқувчиларда объектив нуқтаи назарни шакллантириш, улар билан ҳамкорликка киришишнинг асосий манбаи ҳисобланади. Ўқитувчининг ўзи инсонпарвар, ҳақгўй, адолатли бўлгандагина, вужудга келадиган педагогик низоларнинг олдини олади.

Бугунги кунда ҳамкорлик педагогикасига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Инсонлар орасидаги ҳамкорлик жамият аъзолари орасида ишчан мулоқот, бир-бирининг хис-туйғуларини ҳурмат қилиш, кўмаклашиш, жамият равнақи йўлида биргаликда ҳаракат қилиш туйғусини шакллантиради. Унинг асосини инсонпарварлик ташкил этади. Инсонпарварлик деганда, умуминсоний кадриятлар, инсоннинг чексиз имкониятларини тушуниш, унинг лаёқатлари ва ўз-ўзини такомиллаштиришига ишониш, шахснинг ғурур ва етуқлигига ҳурмат билан қараш, унга танлов эркинлигини беришда намоён бўлади.

Ҳаётнинг барча соҳаларида инсон фаолиятига нисбатан кучли эҳтиёж мавжуд. Бу эҳтиёж ижтимоий муносабатлар, таълим-тарбия жараёнида шаклланади. Ўқувчи шахсини ўқитувчи фаолияти орқали шакллантириш мумкин. Бу ўринда ўқитувчи маърифат тарқатувчи устоз, маънавият тарғиботчиси, дўст, ҳамкор сифатида намоён бўлади. Ўқитувчи ўзининг шундай сифатлари билан юксак маънавиятли шахсни шакллантиришга хисса қўша олади.

Албатта, бу талабларни амалга ошириш учун ўқитувчи юксак салоҳиятга, педагогик ва коммуникатив компетентликка эга бўлиши, ўз педагогик маҳоратини сабот билан узлуксиз тарзда изчиллик билан ошириб бориши зарур. Ўқитувчининг қатор касбий ва педагогик сифатларни ўзида жамлайдиган касбий-педагогик компетентликка эга бўлиши замон талабидир.

#### **Фойдаланилган манбалар:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги “Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси” тўғрисидаги ПФ-5712-сонли Фармони. <https://lex.uz>
2. Педагогика. Энциклопедия. III жилд. Жамоа // Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2017. 424 б. Б.82-83.
3. Педагогика. Энциклопедия. II жилд./ тузувчилар: Жамоа.- Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. 2015, 368 б.
4. Худойқулов Х.Ж., Ҳимматалиев Д.О., Жўраева Г. // [Педагогик низолар, уларнинг келиб чиқиш сабаблари, ўқувчиларнинг ҳақ-ҳуқуқлари / Педагогика / XIX Международная научно-практическая интернет-конференция – 30-31 января 2014 / Научные Конференции \(neasmo.org.ua\)](https://www.neasmo.org.ua)

## **ANTROPOSENTRIK YONDASHUV ASOSIDA O'QITISHDA O'QITUVCHI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

Sobirova Mahbuba Yusupdjonovna

Namangan davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

***Qisqacha annotatsiya:** maqolada dunyo hamjamiyatidagi o'qituvchi faoliyati, innovatsiyali texnologiyalar borasidagi izlanishlar xususida so'z boradi. Tilga ijtimoiy qimmatga ega bo'lgan muloqot shakli sifatida qarash, e'tiborni shaxs omiliga qaratish, til ta'limini antroposentrik yondashuv asosida tashkil qilishda o'qituvchi faoliyatini takomillashtirish va bunda interfaol usullarning samaradorligi yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:** o'qituvchi faoliyati, innovatsiyali texnologiyalar, til ta'limi, antroposentrik yondashuv, interfaol usullar, “Yaxshidan bog' qoladi” usuli.*

## **ПОВЫШЕНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЯ В АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКОМ ОБУЧЕНИИ**

Собирова Махбуба Юсупджонова

Доцент Наманганского государственного университета, кандидат пед.наук.



**Краткая аннотация:** в статье рассматривается работа учителей в мировом сообществе, исследования по инновационным технологиям. Рассмотрение языка как социально значимой формы общения с акцентом на индивидуальный фактор, повышение эффективности преподавателя в организации языкового образования на основе антропоцентрического подхода и акцентирование внимания на эффективности интерактивных методов.

**Ключевые слова:** педагогическая деятельность, инновационные технологии, обучение языки, антропоцентрический подход, интерактивные методы, метод "Хороший человека сад останется".

## **IMPROVING TEACHER ACTIVITY IN ANTHROPOCENTRIC TEACHING**

Sobirova Mahbuba Yusupdjonovna  
Associate Professor of Namangan State University,  
Candidate of Pedagogical Sciences

**Brief annotation:** The article discusses the work of teachers in the world community, research on innovative technologies. Viewing language as a socially valuable form of communication, focusing on the individual factor, improving the teacher's performance in the organization of language education on the basis of an anthropocentric approach, and highlighting the effectiveness of interactive methods.

**Keywords:** teaching activities, innovative technologies, language teaching, anthropocentric approach, interactive methods, the method of "A good man's garden will remain".

Hozirgi paytda zamonaviy ta'lim tizimining shakllanish jarayonida o'quv-tarbiya jarayonining pedagogik nazariyasi va amaliyotida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalari shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish yo'lida tez va sifatli ilgariylashini ta'minlaydigan zamonaviy innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi.[1]

Dunyo hamjamiyatida o'qituvchi faoliyati, uning ijodkorligi, innovatsiyali texnologiyalar, g'oyalar, maktablar, yo'nalishlar borasida izlanishlar jadal ketmoqda. Jumladan, xorijlik olimlardan I. Johnson (San-Frasisko) ijodiy ta'limni tashkil etish va Paulson Stone (Massachusetts, USA) [2] ona tilini o'rganishda o'qituvchi va o'quvchi munosabati; Lars Yacob (Britaniya) o'qituvchi va o'quvchi istiqbollari xususida, Maria del Mar Camacho Marti (Nyu York) [3] AKTga asoslangan sharoitda o'qituvchining faoliyatini loyihalash, S.Demetriadis [4] ona tili ta'limida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish bo'yicha qator tadqiqotlarni amalga oshirishgan.

Respublikamizda ta'lim-tarbiya jarayoni, uning sifatini boshqarish masalalari R.X.Djurayev, R.Sh.Ahliddinov, U.I.Inoyatov, M.B.Urazovalar [5] tomonidan tadqiq etilgan.

Axborot oqimi kuchaygan bugungi sharoit darslari va mashg'ulotlarida aqliy zo'riqishning ortishi natijasida ta'lim oluvchilarda mavzularni o'rganish mobaynida o'rganilayotgan materialga qiziqishini, o'rganuvchilarning faolligini qanday qilib so'ndirmaslik haqida o'ylashni ham taqozo etadi. Ta'lim oluvchilarning fikrlashini faollashtirishda, ularni bilimlarni mustaqil egallashga undashda bugungi o'qituvchining o'rni beqiyosdir.

Keyingi yillarda, ya'ni XXI asr boshlaridan o'qitishda, xususan, til ta'limini antroposentrik, lingvokulturologik, pragmatik, sotsiolingvistik, kognitiv va psixolingvistik tamoyillar asosida berishga oid tendensiya kuchaydi. Tilga faqat semantik-sintaktik jihatdan bog'langan gaplar yig'indisi sifatida emas, balki ijtimoiy qimmatga ega bo'lgan muloqot shakli, o'zida muayyan til sohiblarining bilimlarini, lisoniy tafakkurini, milliy psixologiyasi va mentalitetini aks ettiruvchi mental qurilma sifatida qarala boshlandi.



Ma'lumki, o'zbek tilshunosligining bugungi taraqqiyot bosqichida til tizimi va inson lisoniy faoliyati mexanizmini til egasi bo'lgan shaxs, uning lisoniy ongi va tafakkuri, ruhiyati; nutqiy vaziyat, ijtimoiy muhit, xalq madaniyati kabi omillar bilan bog'liqlikda o'rganishga e'tibor kuchaymoqda. XX asr so'ngida tilshunoslik ilmiy paradigmasiga «til shaxsi» kategoriyasining kiritilishi bugungi kunda kognitiv lingvistika, psixolingvistika, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, pragmalingvistika, etnolingvistika kabi inson fenomeni muammolari bilan shug'ullanuvchi lingvistik yo'nalishlarning shakllanishiga olib keldi. Tilni o'rganishga bu jihatdan yondashuv jahon tilshunosligida antroposentrizm g'oyalarining keng yoyilishiga turtki berdi.

Antroposentrik paradigmaning shakllanishi til egasi – so'zlovchi shaxs omilini tadqiq etish bilan bog'liqdir. Tilshunoslikda antroposentrik burilishning yuzaga kelishi strukturalizmning tilni tadqiq etishning “o'zida va o'zi uchun” tamoyilini chetga surib, asosiy e'tiborini shaxs omiliga qaratdi. Hozirgi vaqtda tilshunoslikning yetakchi paradigmalardan biri sifatida tan olinayotgan antroposentrizmningildizlari V.fon Gumboldt hamda L.Vaysgerberning nazariy qarashlaridan oziqlandi.

Bugungi kun o'qituvchisi, xususan, til ta'limi o'qituvchisi ta'lim samaradorligiga erishishda o'qituvchining o'quvchilar bilan, o'quvchilarning o'quvchilar bilan o'zaro sherikligi qanday o'rin tutishini; til ta'limi, birinchi navbatda, o'quvchilarning his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatish orqali ularda ezigu ma'naviy sifatlarni shakllantirish vositasi ekanini chuqur anglashi kerak.

O'qitish metodlari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining qanday kechishi, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish, qay tarzda olib borish kerakligini belgilab beradi. O'qituvchi metodi haqida gap ketganda V.G.Belinskiyning quyidagi fikrlarini nazardan qochirmaslik zarur: «Bola... o'smir, keyin esa yigit bo'lib yetishadi, qarabsizki, erkak ham bo'lib qoladi, shu boisdan uning qobiliyati takomilini kuzatib boring hamda shunga ko'ra, tarbiya usullaringizni o'zgartiring, undan hamisha yuqori turing; aks holda, holingizga voy: bola siz bilan yuzma-yuz turib ustingizdan kuladi. Unga o'rgatar ekansiz, o'zingiz yana ham ko'proq o'rganing, aks holda, u sizni ortda qoldirib ketadi: bolalar tez o'sishadi.» [6]

O'qituvchining o'zi o'qitayotgan fan asoslarini mukammal bilishi, bilganlarini o'quvchilariga yetkaza olish darajasigina emas, hatto uning o'zini tutishi, nutqi ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. M.V.Klarin bu haqda shunday deydi: «O'qituvchi tomonidan qo'llanadigan pauzaning davomiyligi singari «mayda narsa» o'quv dialogining sinfdagi o'zaro hamkorlikning xarakteriga sezilarli ta'sir o'tkazadi.»[7] Psixolog-metodist Ye.V.Korotayeva bu mavzuga doir shunday yozadi: «Agar «javobni kutuvchi pauza» o'qituvchi tomonidan uch sekunddan besh sekundgacha cho'zilsa, mulohazalar soni ortadi, javoblarning davomiyligi ko'payadi, o'quvchilarning o'zlariga bo'lgan ishonchlari ko'tariladi, ularning mulohazalarida dalillar kuchayadi, muhokamaga o'qish darajalari unchalik yuqori bo'lmagan o'quvchilar ham qo'shila boshlaydi, bolalar orasidagi o'zaro hamkorlik kuchayadi va boshqalar.»[8]

Insoniyat bilim olish va bilim berishning shunday bosqichiga yetdiki, endilikda necha ming yillardan buyon foydalanib kelinayotgan o'qitish usullari yetarli bo'lmay qoldi. Bugun o'qitishning turli-tuman innovatsion ko'rinishlari yuzaga kelmoqda. Davr bilim berish, bolalarda muayyan ko'nikma va malakalarni shakllantirishning o'zgacharoq yo'llarini topishni talab etmoqda. Ta'lim tizimi va uni yo'lga qo'yish borasidagi shu xil yangilanishlar keyingi vaqtlarda dunyo miqyosida keng yoyilib borayotgan interfaol metodlarning yuzaga kelishini taqozo etmoqda. [9]

Til ta'limini antroposentrik yondashuv asosida tashkil qilishda “Chin insonni adashmay toping”, “Odamiylik so'zi bizniki”, “Do'stlik bekati”, “Fikrimizni o'rtoqlashamiz”, “Fikrlaymiz, o'ylaymiz”, “Go'zal murojaat”, “Hamxona”, “Hamkorlik”, “Ma'nosini bilasizmi?”, “Mazmunan qarindosh, shaklan begona”, “Menga qo'shni bo'ling”, “Mantiqiy fikrlang”, “Nima yaxshi-yu, nima yomon”, “Olqish olgan omondir”, “Qarindosh”, “So'zdan marjon tizing”, “So'z harfidan so'z yasang”, “So'zlar guldastasini tuzing”, “Chin insonni ta'riflang”, “Yaxshidan bog' qoladi” kabi interfaol usullar



samarali hisoblanadi. Mazkur usullardan biri – “Yaxshidan bog’ qoladi”ni shunday tashkil qilish mumkin:

**“Yaxshidan bog’ qoladi” usuli** ham ezgu ma’naviy fazilatlarni rivojlantirishda, hamkorlikni yo’lga qo’yishda, guruhlar bilan ishlashda ko’proq qo’l keladi. O’quvchilar guruhlariga bo’linib, jamoalariga mos nom tanlashadi va ushbu nomni vatman qog’ozga yozishadi. Guruhning faol ishtiroki uchun vatmanga bittadan yashnab turgan daraxt tasviri yopishtiriladi. Istagan o’quvchi, istagan vaqtida, istagan fikrini aytishi mumkinligi ta’kidlanadi. Bu o’rinda muhim fikrlarning kotiblar tomonidan yozib olinishiga ulgurish zarur bo’ladi. O’quvchilar har qanday to’g’ri-noto’g’ri, yaxshi-yomon fikrlarni bildirishdan cho’chimasliklari uchun qoidalar darstaxtaga yozib qo’yilishi va unga hammaning amal qilishi ta’minlanishi kerak. Bu usulning diqqatga loyiq jihati shundaki, unda o’quvchilar o’zaro birgalikda ishlashga, yaxshi yoki yomon o’qishidan qat’i nazar, har bitta qatnashchining fikrini eshitishga o’rganishadi. Shuningdek, guruh a’zolarining bir xil baholanishi bolalarda jamoatchilik, hamkorlik ruhini shakllantirishga xizmat qiladi. Mashg’ulot nihoyasida oppoq vatmanda ajoyib bog’ tasviri paydo bo’ladi. Daraxtlar soni guruhlar bahosini belgilaydi. Ayni shu jarayonda mehnatkash, g’ayratli, chaqqon insonlarning bog’ yarata olishi, go’zallikni hosil qilishi, ona tabiatni asrab-avaylashi, obod qilishi kerakligi o’quvchilar ongiga singib boradi.

Demak, til ta’limini antroposentrik yondashuv asosida tashkil qilishda o’qituvchi tomonidan qo’llaniladigan interfaol usullar quyidagi natijalarni beradi:

- barcha ta’lim oluvchilarning ishtirok etish imkoniyati hosil qilinadi;
- o’tilgan materialning yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- har bir ta’lim oluvchi o’zining baholanishi mas’uliyatini his etadi;
- o’z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi;
- antroposentrik yondashuv asosida tashkil qilinadigan usullar o’quvchilarga o’zlarini o’zlari to’g’rilash imkonini ham beradi;
- o’quvchilar o’zlari beradigan javobda oldingilarni takrorlamaslikka, muammoning yangi qirralarini ochib berishga intilishadi;
- antroposentrik yondashuv asosida o’qituvchi tomonidan tashkil qilingan til saboqlari o’quvchilarda ezgu ma’naviy sifatlar shakllanishiga sabab bo’ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to’g’risida"gi PF-5544-sonli Farmoni. 2018 y. 21.09.
2. Creative Teaching: Using Creative Teaching Methods in a Student-centered ESL Environment. Ivy Johnson. [ivy.m.johnson@gmail.com](mailto:ivy.m.johnson@gmail.com); A professional development program for the mother tonguebased teacher: addressing teacher knowledge and attitudes about mtbmlc A Dissertation Presented by Rebecca Paulson Stone [https://scholarworks.umass.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1593&context=open\\_access\\_dissertations](https://scholarworks.umass.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1593&context=open_access_dissertations).
3. Larsen, Lars Jacob Ege, "Teacher and student perspectives on a blended learning intensive English program writing course" (2012). Graduate Theses and Dissertations. 12375. <https://lib.dr.iastate.edu/etd/12375>; UNIVERSITAT ROVIRA I VIRGILI THEACHER TRAINING IN ICT-BASED LEARNING SETTINGS. DESING AND IMPLEMENTATION OF AN ON-LINE INSTRUCTIONAL MODEL FOR ENGLISH LANGUAGE TEACHERS. DOCTORAL THESIS. Maria del Mar Camacho i Mart. ISBN: 978-84-690-7634 / DL: T.1394-2007.



4. Demetriadis S. "Cultures in negotiation": teachers' acceptance/resistance attitudes considering the infusion of technology into schools, Computers and Education, Volume 41, Issue 1, 2013, -P. 19-37.
5. Djurayev R.X. Teoriya i praktika intensivatsii professionalnoy podgotovki uchashixsya profTex uchilish. – T.: Fan, 1992. – 259 s.; Axliddinov R.Sh. Sotsialno-pedagogicheskie osnovy upravleniya kachestvom obshchego srednego obrazovaniya. Avt.diss. dokt.ped nauk.–T.: 2002.44 s.; Inoyatov U.I. Teoreticheskie i organizatsionno-metodi- cheskie osnovy upravleniya kontrolya kachestva obrazovaniya v professionalnom kolledje. Diss. dokt. ped. nauk. – Tashkent, 2003. – 327 s.; Urazova M.B. Bo'lajak kasbiy ta'lim pedagogini loyihalash faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish. Ped.fanl.dokt...diss. avtoref. – T., 2015. – B. 10-21.
6. Belinskiy V.G. Adabiy orzular. Adabiy-tanqidiy maqolalar. –T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1977.
7. Klarin M.V. Innovatsionnye modeli obucheniya v zarubejnyx poiskax. – M.: 1994, s.193.
8. Korotayeva Ye.V. Osobennosti rechevogo vzaimodeystviya uchitelya i uchavshixsya. – M. // Russkiy yazyk v shkole. 2001, № 1, s.7
9. Sobirova M. Matn tahlili asosida o'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash. // Pedagogik mahorat. – Buxoro. 2021. № 4. –B.147-149.

## СОЦИОКУЛЬТУРНЫЙ И КРАЕВЕДЧЕСКИЙ ПРИНЦИПЫ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ

Мамадалиева Саида Шухрат кизи, преподаватель русского языка.

**Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы социокультурного и краеведческого аспектов обучения русскому языку и их влияния на формирование коммуникативной компетенции учащихся. Цель статьи – охарактеризовать социокультурные и краеведческие принципы обучения русскому языку и предложить конкретные методы обучения, которые можно рекомендовать на основе этой теории.

**Ключевые слова:** Социокультурный принцип, культуроведческий принцип, социолингвистика, этнолингвистика, лингвокультурология, транслятор, языковая картина мира, национальная культура, социокультурная компетенция.

## РУС ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ИЖТИМОЙИ-МАДАНИЙ ВА ЎЛКАШУНОСЛИК ТАМОЙИЛЛАРИ

Мамадалиева Саида Шухрат кизи, рус тили ва адабиёти ўқитувчиси

**Аннотация:** Мақолада рус тилини ўқитишда ижтимоий–маданий ва ўлкашунослик тамойиллари ва уларнинг талабалар коммуникатив компетенциясига таъсири масалалари ёритилган. Мақоланинг мақсади: рус тилини ўқитишнинг ижтимоий-маданий ва ўлкашунослик тамойилларини тавсифлаш ва ушбу назарияга асосланиб тавсия этилиши мумкин бўлган ўзига хос ўқитиш усулларини таклиф қилишдир.

**Калит сўзлар:** Социомаданий тамойил, маданиятшунослик тамойил, социолингвистика, этнолингвистика, лингвокультурология, транслятор, дунёнинг тил тасвири, миллий маданият, социомаданий



142	<b>К вопросу о роли духовности в формировании патриотизма у молодежи</b> Джуманазарова З. ....	673
143	<b>Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlardan foydalanish samaradorligi</b> Ismoilov T., Sultanov B., Artikova N. ....	677
144	<b>Нотўлиқ оилаларда болаларни ижтимоий ҳаётга тайёрлашнинг педагогик механизмлари</b> Асранбаева М.Х. ....	681
145	<b>Ўқувчиларда ўзбек менталитетига хос маънавий-ахлоқий хусусиятларни шакллантиришда бадиий асарларнинг ахамияти</b> Усмонова М.Б. ....	688
146	<b>Во'лажак о'қитувчиларда media kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari</b> Qambarov M.M. ....	693
147	<b>Эффективность применения творческих заданий в развитии речевой деятельности</b> Мирзахалова Г.У. ....	698
148	<b>Ўсмирлик ёшидаги болаларнинг морфофункционал хусусиятлари</b> Иминжанов Р.А., Холматов Н.У. ....	702
149	<b>Ҳарбий ватанпарварлик тарбиясига қўйиладиган замонавий ижтимоий-педагогик талабалар</b> Мамажонов Р.А. ....	707
150	<b>Педагог кадрлар малакасини ошириш жараёнида тингловчиларда касбий компетентликни оширишнинг педагогик шарт-шароитлари</b> Неъматова С.И. ....	713
151	<b>"Inklyuziv ta'lim muhitida pedagogik faoliyatni tashkil etishning hozirgi kun muammolari"</b> Хусанов А.А. ....	720
152	<b>Тиббий педагогикада модел ва векторли моделлаштириш</b> Кадирова М.Р. ....	724
153	<b>1-синф ўқувчиларида мантиқий масалалар ёрдамида математик тафаккурни шакллантириш</b> Каримова К.Р. ....	733
154	<b>Мактабгача таълим ёшидаги боланинг тарбиялашда оила, маҳалла ва нодавлат нотажорат ташкилотлари ҳамкорлиги.</b> Абдуллаева М.А., Абдуллаева Н.С. ....	740
155	<b>Бошланғич синф ўқувчиларида креатив фикрлаш кўникмаларини ривожлантириш технологиялари</b> Тўраева Н.З. ....	744
156	<b>Олий таълимда Э.Воҳидов ижодининг мултимедияли таъминотини яратишда ахборот дастурий воситалардан фойдаланиш</b> Хўжамбердиева Ш.К. ....	748
157	<b>Публицистика писателей как источник обогащения педагогического процесса</b> Абдулвоҳидов Э. ....	753